



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

BOLALAR IJTIMOIYLASHUVINING IJTIMOIY-FALSAFIY DETERMINANTLARI

Toxtasunova Gulbaxor Abdurazzakovna
“University of Economics and Pedagogy”, o‘qituvchi

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda ijtimoiylashuv jarayonining mohiyati ochib berilib, unga ta’sir etuvchi asosiy omillar institutsional, aksiologik, kommunikativ va raqamli-madaniy determinantlar tizimlashtirilgan. Zamonaviy globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida bolalar ijtimoiylashuvining o‘ziga xos xususiyatlari hamda milliy jamiyat kontekstidagi namoyon bo‘lishi ilmiy asoslangan. Tadqiqot natijalari ijtimoiylashuv jarayonini kompleks boshqarishda oila, ta’lim muassasalari va raqamli muhitning o‘zaro dialektik bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: bolalar ijtimoiylashuvi, ijtimoiy-falsafiy determinantlar, ijtimoiylashuv jarayoni, aksiologik omillar, raqamli muhit, ijtimoiy institutlar, globallashuv.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ДЕТЕРМИНАНТЫ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ

Тохтасунова Гулбахор Абдураззаковна
«University of Economics and Pedagogy», преподаватель

Аннотация

В данной статье на основе комплексного подхода проанализированы социально-философские детерминанты социализации детей. Раскрыта сущность процесса социализации и систематизированы основные факторы, влияющие на него: институциональные, аксиологические, коммуникативные и цифрово-культурные детерминанты. Научно обоснованы особенности социализации детей в условиях глобализации и цифровой трансформации, а также её проявление в контексте национального общества. Результаты исследования показывают диалектическую взаимосвязь семьи, образовательных учреждений и цифровой среды в комплексном управлении социализацией.

Ключевые слова: социализация детей, социально-философские детерминанты, процесс социализации, аксиологические факторы, цифровая среда, социальные институты, глобализация.

SOCIO-PHILOSOPHICAL DETERMINANTS OF CHILDREN'S SOCIALIZATION

Toxtasunova Gulbaxor Abdurazzakovna
“University of Economics and Pedagogy”, Lecturer

Abstract

This article analyzes the socio-philosophical determinants of children's socialization based on an integrated approach. The essence of the socialization process is revealed, and the main influencing factors institutional, axiological, communicative, and digital-cultural determinants are systematized. The specific features of children's socialization in the context of globalization and digital transformation, as well as their manifestation within the national context, are scientifically substantiated. The research results demonstrate the dialectical interrelation of the family,

educational institutions, and the digital environment in the comprehensive management of socialization.

Keywords: children's socialization, socio-philosophical determinants, socialization process, axiological factors, digital environment, social institutions, globalization.

XXI asrda jamiyat taraqqiyotining jadallashuvi, globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi va raqamli makonning kengayishi bolalar ijtimoiylashuvi mazmuni va mexanizmlariga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ijtimoiylashuv jarayoni shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy rollarni egallashi va qadriyatlar tizimini o'zlashtirishi bilan bog'liq murakkab ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Shu bois bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlarini aniqlash zamonaviy gumanitar tadqiqotlarning dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Mavjud ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bolalar ijtimoiylashuvi ko'proq pedagogik, psixologik yoki sotsiologik nuqtayi nazardan o'rganilgan. Biroq ushbu jarayonning chuqur ijtimoiy-falsafiy omillari qadriyatlar transformatsiyasi, ijtimoiy institutlar evolyutsiyasi, madaniy kodlar almashinuvi, raqamli muhitning ontologik va aksiologik ta'siri kabi masalalar yetarli darajada kompleks yoritilmagan. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek jamiyati kontekstida bolalar ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi determinantlarning tizimli falsafiy tahlili hali to'liq shakllanmagan. Shuningdek, bugungi kunda oila instituti transformatsiyasi, ta'lim muhitining yangilanishi, ommaviy kommunikatsiya vositalari va virtual makonning kuchayib borayotgan ta'siri bolalar ijtimoiylashuvi tabiatini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda. Bu esa ijtimoiylashuvni faqat institutsional emas, balki ontologik, gnoseologik va aksiologik jihatdan ham tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur holatlar tadqiqot muammosini quyidagicha belgilash imkonini beradi: bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlarini aniqlash, ularning o'zaro aloqadorligi va zamonaviy jamiyat sharoitidagi transformatsiyasini ilmiy asoslash zarur. Tadqiqot maqsadi shundan iborat-ki bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlarini nazariy jihatdan tahlil qilish va ularning zamonaviy jamiyatdagi namoyon bo'lish xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqot vazifalari esa quyidagilardan iborat: ijtimoiylashuv tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyatini ochib berish, bolalar ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi asosiy determinantlarni tizimlashtirish, ijtimoiy institutlar (oilalar, ta'lim, ommaviy axborot vositalari va boshqalar)ning determinant sifatidagi rolini tahlil qilish, globallashuv va raqamli makon sharoitida bolalar ijtimoiylashuvining transformatsion xususiyatlarini aniqlash, zamonaviy o'zbek jamiyati misolida bolalar ijtimoiylashuvining ustuvor ijtimoiy-falsafiy omillarini asoslash.

Mazkur maqolada bolalar ijtimoiylashuvi jarayoni ijtimoiy-falsafiy yondashuv asosida tahlil qilinib, uning determinantlari tizimli ravishda ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Bolalar ijtimoiylashuvi muammosi ijtimoiy-falsafiy tafakkur tarixida shaxs va jamiyat munosabatlari doirasida shakllangan fundamental masalalardan biridir. Mazkur jarayonni tushuntirishga qaratilgan nazariy qarashlar evolyutsiyasi tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiylashuv determinantlarini anglash turli metodologik paradigmalarda asosida rivojlanib kelgan.

"Ijtimoiylashuvning klassik sotsiologik-falsafiy talqini **E.Durkheim** tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u ta'lim va tarbiyani jamiyatning kollektiv ongini reproduksiya qiluvchi mexanizm sifatida izohlaydi" [2]. Olimning konsepsiyasida ijtimoiylashuv jamiyatning normativ tuzilmasini avlodlardan avlodga uzatuvchi zaruriy ijtimoiy jarayon sifatida talqin etiladi. Bu yondashuv ijtimoiy determinantlarning institutsional tabiatini anglashda muhim nazariy asos yaratadi.

"Madaniy-tarixiy yondashuv doirasida **L.Vygotskiy** ijtimoiylashuvni shaxs ongining sotsiokulturniy vositalar orqali shakllanish jarayoni sifatida asoslaydi"[5]. Uning fikricha, bola rivoji ijtimoiy muloqot va vositachilik orqali amalga oshadi. Mazkur qarash ijtimoiylashuvning

gnoseologik va kommunikativ determinantlarini ochib berishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

“Ramziy interaksionizm doirasida **G.H.Mead** shaxsning ijtimoiy tabiatini “Men” va “Meni” o’rtasidagi dialektik munosabat orqali tushuntiradi”[4]. Muallif ijtimoiylashuvni ijtimoiy tajribani interiorizatsiya qilish jarayoni sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv bolalar ijtimoiylashuvida kommunikativ-amaliy determinantlarning ustuvorligini ko’rsatadi.

“Ekologik yondashuv asoschisi **U.Bronfenbrenner** esa bola rivojini ko’p qatlamli ijtimoiy muhitlar tizimi bilan bog’liq holda izohlaydi” [1]. Uning modelida mikro-, mezo-, ekzo- va makrotizimlar o’zaro dialektik aloqada faoliyat yuritadi. Ushbu konsepsiya bolalar ijtimoiylashuvi determinantlarini tizimli-falsafiy nuqtayi nazardan tasniflash imkonini beradi.

“O’zbek falsafiy tafakkurida shaxs kamoloti va ijtimoiy muhit o’zaro aloqadorligi masalasi **N. Jo’rayev** tomonidan ijtimoiy taraqqiyotning ma’naviy omillari kontekstida tahlil qilingan” [3]. Olim milliy qadriyatlar va ijtimoiy ong shakllari shaxs ijtimoiylashuvining muhim aksiologik determinantlari ekanini asoslaydi. Bu yondashuv bolalar ijtimoiylashuvini milliy-madaniy kontekstda talqin qilish uchun metodologik zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko’rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda ijtimoiylashuv omillari turli fanlar kesimida yoritilgan bo’lsa-da, bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlarini integrativ, aksiologik va sotsiokulturniy birlikda tadqiq etish yetarli darajada amalga oshirilmagan. Ayniqsa, zamonaviy o’zbek jamiyatidagi transformatsion jarayonlar fonida ushbu masalani qayta konseptuallashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlarini aniqlash va tizimlashtirish maqsadida quyidagi falsafiy va umumilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi. Avvalo, dialektik metod asosida ijtimoiylashuv jarayonining ichki ziddiyatlari, rivojlanish dinamikasi hamda determinantlar o’rtasidagi o’zaro bog’liqlik tahlil qilindi. Ushbu metod jarayonning harakatchan va o’zgaruvchan tabiatini ochib berishga xizmat qildi.

Shuningdek, tizimli yondashuv yordamida bolalar ijtimoiylashuvi ko’p omilli ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida talqin qilinib, uning strukturaviy komponentlari o’zaro aloqadorlikda o’rganildi. Qiyosiy-falsafiy tahlil metodi orqali turli ilmiy maktablar va konsepsiyalarda ijtimoiylashuv determinantlarining talqini solishtirildi va ularning metodologik umumiyliklari hamda farqlari aniqlandi. Bundan tashqari, aksiologik yondashuv vositasida bolalar ijtimoiylashuvida qadriyatlar tizimi, me’yorlar va madaniy kodlarning roli ochib berildi. Gnoseologik tahlil yordamida ijtimoiylashuv jarayonida bilim, tajriba va ijtimoiy ong shakllarining shakllanish mexanizmlari izohlandi.

Mazkur metodlar uyg’unligi tadqiqot muammosini kompleks yoritish hamda bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlarini chuqur ilmiy asoslash imkonini berdi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Mazkur tadqiqot doirasida bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlari tizimli tahlil qilindi hamda ularning zamonaviy jamiyat sharoitidagi namoyon bo’lish xususiyatlari aniqlandi. Olingan natijalar ijtimoiylashuv jarayonining ko’p omilli va ko’p darajali tabiatga ega ekanini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalariga ko’ra, bolalar ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi determinantlar shartli ravishda **institutsional, aksiologik, kommunikativ va raqamli-madaniy** guruhlariga ajratildi. Ushbu tasnif ijtimoiylashuv jarayonini yaxlit ijtimoiy-falsafiy tizim sifatida talqin qilish imkonini berdi.

1-jadval.

Bolalar ijtimoiylashuvining asosiy ijtimoiy-falsafiy determinantlari

№	Determinantlar guruhi	Asosiy tarkibiy omillar	Ta’sir yo’nalishi
1	Institutsional	oila, ta’lim muassasasi, tengdoshlar muhiti	ijtimoiy rollarni o’zlashtirish

2	Aksiologik	milliy qadriyatlar, ijtimoiy me'yorlar, an'analar	qadriyatlar tizimini shakllantirish
3	Kommunikativ	muloqot madaniyati, ijtimoiy tajriba almashuvi	ijtimoiy kompetensiyalar rivoji
4	Raqamli-madaniy	internet, ijtimoiy tarmoqlar, media muhit	identifikatsiya va dunyoqarash transformatsiyasi

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, bolalar ijtimoiylashuvida institutsional omillar yetakchi o'rin egallasa-da, raqamli-madaniy determinantlarning ta'siri so'nggi yillarda sezilarli darajada kuchaygan. Bu holat ijtimoiylashuv mexanizmlarining transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, oila instituti hanuz bolalar ijtimoiylashuvining birlamchi makoni bo'lib qolmoqda, biroq uning tarbiyaviy monopoliya mavqei pasayib bormoqda. Ta'lim muassasalari esa ijtimoiylashuvni maqsadli boshqaruvchi muhim ijtimoiy mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, virtual makon bolalarning qadriyat yo'nalishlari va identifikatsiya jarayoniga tobora kuchli ta'sir ko'rsatmoqda.

2-jadval.

**Determinantlarning ijtimoiylashuv jarayoniga
ta'sir darajasi (ekspert bahosi asosida)**

Determinantlar	Yuqori ta'sir (%)	O'rta ta'sir (%)	Past ta'sir (%)
Oila muhiti	72	21	7
Ta'lim muassasasi	65	27	8
Tengdoshlar guruhi	58	30	12
Ommaviy axborot vositalari	49	33	18
Raqamli muhit	61	25	14

Ekspert baholari shuni ko'rsatadiki, an'anaviy institutlar bilan bir qatorda raqamli muhit ham bolalar ijtimoiylashuvida yuqori ta'sir kuchiga ega determinantga aylanib bormoqda. Bu natija zamonaviy ijtimoiylashuv modelining gibril xarakter kasb etayotganini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar klassik ijtimoiylashuv nazariyalari bilan qisman mos keladi, biroq zamonaviy sharoitda determinantlar tizimida sifat o'zgarishlari yuz berayotganini ko'rsatadi. Xususan, institutsional omillarning yetakchi roli saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, raqamli-madaniy muhitning ta'siri sezilarli darajada ortib bormoqda. Bu holat ijtimoiylashuv jarayonining postindustrial jamiyat sharoitida yangi mazmun kasb etayotganini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqot davomida aksiologik determinantlarning barqarorlik omili sifatidagi roli tasdiqlandi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolalarning ijtimoiy moslashuvi va identifikatsiyasida muhim mezon bo'lib qolmoqda. Biroq globallashuv sharoitida qadriyatlar pluralizmi kuchayib borayotgani ijtimoiylashuv jarayonida aksiologik ziddiyatlar yuzaga kelish ehtimolini oshirmoqda.

Muammo sifatida shuni ta'kidlash joizki, ta'lim va oila institutlari faoliyatida raqamli muhit ta'sirini tizimli hisobga olish mexanizmlari yetarli darajada shakllanmagan. Natijada bolalar ijtimoiylashuvi ko'pincha stixiyali axborot oqimlari ta'sirida kechmoqda.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlari o'zaro dialektik bog'liqlikda namoyon bo'lishini ko'rsatdi hamda zamonaviy jamiyat sharoitida ushbu jarayonni kompleks yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini asoslab berdi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlari kompleks yondashuv asosida tahlil qilinib, ularning zamonaviy jamiyat sharoitidagi o'ziga xos xususiyatlari ochib berildi. Olingan natijalar ijtimoiylashuv jarayoni ko'p omilli, ko'p darajali hamda dinamik ijtimoiy-falsafiy hodisa ekanini yana bir bor tasdiqladi.

Tadqiqot davomida ijtimoiylashuv tushunchasining ijtimoiy-falsafiy mohiyati aniqlashtirildi va bolalar ijtimoiylashuviga ta'sir etuvchi determinantlar institutsional, aksiologik, kommunikativ hamda raqamli-madaniy guruhlariga tizimlashtirildi. Bu tasnif ijtimoiylashuv jarayonini yaxlit tizim sifatida anglash va uning ichki bog'liqliklarini ochib berish imkonini berdi.

Aniqlanishicha, an'anaviy ijtimoiy institutlar avvalo oila va ta'lim muassasalari bolalar ijtimoiylashuvining yetakchi omillari bo'lib qolmoqda. Biroq globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida virtual makon va ommaviy kommunikatsiya vositalarining ta'siri sezilarli darajada kuchayib, ijtimoiylashuv modelining gibrid xarakter kasb etishiga olib kelmoqda. Bu holat bolalar shaxsiyati shakllanishida yangi aksiologik va kommunikativ muammolarni yuzaga chiqarmoqda.

Tadqiqot natijalari aksiologik determinantlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar bolalarning ijtimoiy identifikatsiyasi va ijtimoiy moslashuvida barqaror asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatdi. Shu bilan birga, qadriyatlar pluralizmining kuchayishi ijtimoiylashuv jarayonida ma'naviy yo'naltirish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Shuningdek, ish jarayonida ta'lim va oila institutlarida raqamli muhit ta'sirini tizimli boshqarish mexanizmlari yetarli darajada ishlab chiqilmagani ilmiy muammo sifatida aniqlandi. Bu esa bolalar ijtimoiylashuvini ongli boshqarishga qaratilgan integrativ ijtimoiy-pedagogik va ijtimoiy-falsafiy yondashuvlarni kuchaytirishni talab etadi.

Umuman olganda, tadqiqot bolalar ijtimoiylashuvining ijtimoiy-falsafiy determinantlari o'zaro dialektik birlikda amal qilishini ilmiy asoslab berdi hamda zamonaviy o'zbek jamiyati sharoitida ushbu jarayonni kompleks, tizimli va aksiologik yondashuv asosida chuqur tadqiq etish istiqbolli yo'nalish ekanini ko'rsatdi. Kelgusida ijtimoiylashuvning raqamli transformatsiyasi, qadriyatlar dinamikasi va institutsional hamkorlik mexanizmlarini empirik tadqiqotlar asosida chuqurlashtirish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Bronfenbrenner U. The Ecology of Human Development: Experiments by Nature and Design. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – P. 330.
2. Durkheim E. Education and Sociology. – New York: Free Press, 1956. – P. 120.
3. Jo'rayev N. Ijtimoiy taraqqiyot va ma'naviy omillar. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B. 256.
4. Mead G. H. Mind, Self and Society. – Chicago: University of Chicago Press, 1934. – P. 401.
5. Vygotsky L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge: Harvard University Press, 1978. – P. 159.